

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

60210600 – Grafika bakalavriat ta'lif yo'naliishing

MALAKA TALABI

Makon: Malaka talabi. "Oliy ta'lif yo'naliishing" nomidagi "Avvali", "Oliy va davlatli" statusiga ega, "ta'lif yo'naliishining o'mektebosidagi hikmatligi", Qizilqurboni Kengashining "Oliy va davlatli" statusiga ega, "ta'lif yo'naliishining o'mektebosidagi hikmatligi" shartiga va ro'ya va qaydiga ega bo'lib, qurʼon qilingan. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 2024-yilning 25-iyul kuni qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 2024-yilning 25-iyul kuni qabul qilingan.

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti.
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil "25" iyun dagi 218 – sonli buyrug'i bilan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r	bet
1. Umumiyl tavsifi.....	4
1.1. Qo'llanish sohasi	4
1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4. Kasbiy vazifalari.....	5
2. Kasbiy kompetensiyaliga qo'yiladigan talablar	6
3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	7
4. Fanlar katalogining tuzilishi	7
Bibliografik ma'lumotlar.....	11
Kelishuv varag'i.....	12

1. Umumiy tavsifi

60210600 – Grafika ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talablari 60210600 – Grafika ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

Davlat va nodavlat tashkilotlarida badiiy bezak ishlarini tayyorlash, ijodiy loyiha va badiiy ekspozitsiyalarni tashkil etish va joylashtirish, portret, manzara, natyurmort, maishiy, batal janrlarida badiiy kompozitsion asarlar yaratish, respublika va xorijiy ko'rgazma zallari va galereyalarda ijodiy ko'rgazmalarini tashkil qilish, Badiiy ijodkorlar uyushmasida erkin ijodiy faoliyat olib borish, xususiy nashriyot, dizayn studiya, poligrafiya, ishlab chiqarish birlashmalarida kompleks masalalar bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

Davlat va nodavlat tashkilot, korxona va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari, qadimiy qo'lyozmalarini o'rganish muassasalari (muzeylar), nashriyot va dizayn studiyalarda rassom, bosh rassom, badiiy muharrir.

60210600 – Grafika bakalavriat ta'lim yo'naliishi bo'yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgan taqdirda, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *loyihaviy-konstrukturlik;*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*
- *badiiy-ijodiy faoliyat;*

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

60210600 – Grafika ta'lim yo'naliishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

Respublika va xorijda chop etilgan tasviriy san'atga oid san'atshunoslik manbalarini o'rganish;

soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-badiiy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda ishtirok etish.

bosma va visual mahsulotlarini ishlab chiqarish sifatini nazorat qilish;

amaliy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi va kommunikatsion vositalaridan foydalanish;

grafika va minitayura bo'yicha zamonaviy texnologik jarayonlarni qo'llash;

ilmiy asoslangan tizimlarni tavsiya etish va foydalanish;

nashriyot sohasida ishlab chiqarishni tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha badiiy yechimlarni ishlab chiqish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

Nashriyot va dizayn sohasida ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

ijodiy guruh faoliyatini va badiiy ko'rgazmalarni tashkil etish;

grafika va miniatyura sohasida badiiy jarayonlarni amalga oshirish uchun zarur

bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash uslublari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

soha bo'yicha badiiy estetik didni tadbiq eilish;

kasbga oid muammolarning yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash.

Loyihaviy-konstrukturlik faoliyatida:

Bosma va visual mahsulotlarning yangi shaklini loyihalash va kompozitsiya yechimlarini ishlab chiqish;

amaliyotda axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini va zamonaliv uslublarini ixtisosligiga mos ravishda qo'llash.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

Loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

Badiiy-ijodiy faoliyat:

Kitob grafikasi, dastgohli grafika, miniatyura, kitobat, xattotlik, bosma va visual mahsulotlar dizayni kompozitsiyalarini badiiy talab me'yorlarida yaratish;

badiiy ko'rgazmalar konsepsiyasini ishlab chiqish.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

kasbiy faoliyatda kompozitsiya qonuniyatlaridan foydalana olishi, grafika-miniatyura uslub va texnikalarini qo'llay olishi;

san'at tarixi, yetuk soha rassomlari, grafika uslub va texnikalari, miniatyura uslub va texnikalari, kompozitsiya qonunlari, rang garmoniyasi, grafika ashyolari va miniatyura ashyolarini bilishi va amalda qo'llay olishi;

bosma va visual mahsulotlarni axborot texnologiyalar orqali loyihalash, grafika kompozitsiya va miniatyura kompozitsiyalarini ishlab chiqish hamda nodir san'at asarlardan nusxa ko'chirishga qodir bo'lish;

og'zaki va yozma shaklda davlat tili qoida va meyorlariga amal qilgan holda fikr, mulohaza, g'oya, taklif, ta'rif va xulosalarni mantiqiy, to'g'ri, asosli va aniq bayon etish hamda ifodalay olishi;

olingan kasbiy tajribani tanqidiy ko'rib chiqish, o'z-o'zini rivojlantirish, malaka oshirish va o'z kasbiy faoliyatining turi hamda xarakterini o'zgartirishga qodir bo'lishi;

soha bo'yicha axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini bilish va faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishni;

sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va professional faoliyatida ulardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi;

axborot texnologiyalaridan foydalanishda amaliy ko'nikma va mahoratga ega bo'lish;

yaratilgan asarlar sifatini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonini rejalashtirish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lrim yo'naliishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. O'quv tanishuv amaliyoti;
2. Ishlab chiqarish amaliyoti;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiylukdagi yoki hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00 Umumiylukdagi yoki hajmi, soatlarda					
1.01	O'EYaT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.02	Fals1104	Falsafa	120	4	1
1.03	XT1104	Xorijiy til	120	4	1
1.04	SSAT1104	San'at sohasida axborot texnologiyalar	120	4	2
1.05	Oz'T1104	O'zbek (rus) tili	120	4	2
1.06	Din 1104	Dinshunoslik	120	4	1
1.07	TSUT1208	Tasviriy san'at umumiylukdagi yoki hajmi, soatlarda	240	8	3,4
1.08	PA1204	Plastik anatomiya	120	4	1,2
1.09	RVKA1102	Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari	60	2	1
1.10	ILIshA1102	Ilmiy ish asoslari	60	2	7
Dastgoh va kitob grafikasi bo'yicha majburiy fanlar					
1.11	Chiz1760	Chizmatasvir	1800	60	1,2,3,4,5,6,7
1.12	Rang1750	Rangtasvir	1500	50	1,2,3,4,5,6,7
1.13	GK1707	Grafika kompozitsiyasi	210	7	1,2,3,4,5,6,7
1.14	GAU1202	Grafikada a'nanaviy uslublar	60	2	1,2
1.15	GM1102	Grafika materialshunosligi	60	2	2
1.16	Maket1505	Maketlashtirish	150	5	3,4,5,6,7
1.17	Hus1510	Husnixat	300	10	3,4,5,6,7
1.18	GAIsh1510	Grafika ashyolarida ishlash	300	10	3,4,5,6,7
1.19	BMU1104	Badiiy muharririlik uslubiyati	120	4	3
1.20	BODT1104	Badiiy obrazlarning dinamik tasviri	120	4	4
2.00	Tanlov fanlari		300	10	3,5,6
2.00	Tanlov fanlar		300	10	3,5,6
Kvalifikatsiya		Grafik rassom			
Xattotlik va miniatyura bo'yicha majburiy fanlar					
1.11	Chiz1752	Chizmatasvir	1560	52	1,2,3,4,5,6,7
1.12	Rang1752	Rangtasvir	1560	52	1,2,3,4,5,6,7



1.13	MK1707	Miniatyura kompozitsiyasi	210	7	1,2,3,4,5,6,7
1.14	Maket1204	Maketlashtirish	120	2	5,6
1.15	MM1102	Miniatyura materialshunosligi	60	2	2
1.16	MAIsh1510	Miniatyura ashyolarida ishlash	300	10	3,4,5,6,7
1.17	Xat1520	Xattotlik	600	20	3,4,5,6,7
1.18	KS1707	Kitobat san'ati	210	7	1,2,3,4,5,6,7
2.00		Tanlov fanlari	300	10	3,5,7
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	300	10	3,5,7
Kvalifikatsiya		Xattotlik miniatyura rassomi			
		Jami:	6120	204	
		Malakaviy amaliyot	840	28	(4,6,8)
		Bitiruv malakavi ishi	240	8	8
		Jami:	1080	36	
		HAMMASI	7200	240	



Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruhi T 55

OKS 01.040.01


Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, ta'lim yo'naliishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, o'qib-o'rghanish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, ijodiy jarayon, rassomlik uslublari, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tадqiqot jarayoni.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lif muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti


Rektori  A. Mirzoraximov

2024 yil " 25 " 06

M.O.



O'zbekiston daylat san'at va madaniyat instituti

Rektori  N. Sayfullayev

2024 yil " 25 " 06

M.O.



KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'lifni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi
Direktori  M. Boltabayev


M.O.

2024 yil " 25 " 06

Kamoliddin Behzod nomidagi Sharq
miniatyura san'ati muzeyi
Direktori  G. Qarshiyeva

2024 yil " 25 " 06

M.O.



O'zbekiston Badiiy akademiyasi

Raisi  A. Nuriddinov



2024 yil " 25 " 06

M.O.

Pavel Benkov nomidagi Respublika
ixtisoslashtirilgan rassomlik maktabi

Direktori  U. Xakimov



2024 yil " 25 " 06

M.O.